orqali namoyon bo'ladi. Moliyaviy natija jalb qilingan kapitalning narxi, tarkibi, kapitaldan foydalanish intizomi va qiymat yaratishga ta'sirini qamrab oladi. Bozor natijasi narxni aniqlash sifati, investor talabi va ishonchi, bozordagi likvidlik hamda reputatsion kapital bilan ifodalanadi. Institutsional natija esa oshkorlik, korporativ boshqaruv va ichki nazoratning kuchayishi, huquqiy-muvofiqlik xarajatlari hamda investorlarni himoya qilish mexanizmlarining ishlashi bilan tavsiflanadi [13].

Amaliyotda IPO samaradorligini baholash bo'yicha mavjud yondashuvlar ko'pincha tor doiradagi ko'rsatkichlarga tayanadi. Bozor yondashuvda tadbir-tahlil, ya'ni hodisa tahlili usullari, masalan, CAR/BHAR kabi konstruksiyalar ustun bo'lsa, moliyaviy yondashuvda IPOdan oldingi va keyingi hisobdorlik ko'rsatkichlari taqqoslanadi [12]. Biroq bunday yondashuvlar metodologik muammoga duch keladi. IPO ko'p mezonli, ya'ni ko'p o'lchamli hodisa bo'lsa-da, baholash ko'pincha bir mezonli, ya'ni bir o'lchamli bo'lib qoladi. Bu esa jalb qilingan kapitalning "iqtisodiy foydaliligi" va "institutsional qo'shimcha qiymati"ni bir vaqtning o'zida ushlash imkonini cheklaydi [13].

Tadqiqotning dolzarbligi aynan shundaki, IPO samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy-metodologik asoslar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, baholash mezonlari, indikatorlari va integratsiyalashgan modelning konseptual tuzilmasi ko'p hollarda fragmentar yondashuvlar darajasida qolmoqda [21].

Ushbu maqolaning maqsadi IPO orqali jalb qilingan kapital samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat. Unda moliyaviy, bozor va institutsional natijalar yagona, mantiqan bog'langan baholash tizimiga keltiriladi va ko'p mezonli baholash orqali integratsiyalashgan konseptual model taklif etiladi [21]. Tadqiqot obyekti IPO jarayoni orqali kapital jalb qilishdir. Tadqiqot predmeti esa IPO samaradorligini baholash mezonlari va metodlari tizimidan iborat [13].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

IPO orqali kapital jalb qilish samaradorligini baholash metodologiyasi moliyaviy bozorlar nazariyasi, korporativ boshqaruv va ko'p mezonli baholash yondashuvlarining integratsiyasiga asoslanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu jarayonni baholash nafaqat jalb qilingan kapital hajmi, balki uning qiymati, risk darajasi va kompaniya faoliyatiga ta'siri orqali kompleks yondashuvda tahlil qilinadi.

Fama 1970-yilda samarali bozorlar nazariyasini asoslab, qimmatli qog'ozlar narxi mavjud barcha axborotni aks ettirishini ko'rsatgan. Ushbu yondashuv IPO samaradorligini baholashda muhim nazariy asos bo'lib, IPO narxining bozor tomonidan qanday qabul qilinishini va uning adolatligini aniqlash imkonini beradi. Agar bozor samarali bo'lsa, IPO orqali jalb qilingan kapital kompaniyaning haqiqiy qiymatiga yaqin baholanadi.

Jensen va Meckling 1976-yilda ishlab chiqqan agentlik nazariyasi IPO samaradorligini baholashda boshqaruv va mulkchilik o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. IPO natijasida aksiyadorlar sonining ortishi menejerlar ustidan nazoratni kuchaytiradi, bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, agentlik xarajatlari mavjudligi IPOdan keyingi natijalarni baholashda muhim omil hisoblanadi.

Pagano, Panetta va Zingales 1998-yilda kompaniyalar nega ochiq bozorga chiqishini empirik jihatdan tahlil qilib, IPO orqali kapital jalb qilishning asosiy motivlari sifatida investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, qarz yukini kamaytirish va kompaniya obro'sini oshirishni ko'rsatadi. Bu esa IPO samaradorligini baholashda moliyaviy va strategik ko'rsatkichlarni birgalikda hisobga olish zarurligini asoslaydi.

IPO xarajatlari va samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik Ritter 1987-yil tadqiqotida keng yoritilgan. U IPO jarayonida yuzaga keladigan bevosita va bilvosita xarajatlarni tahlil qilib, underpricing hodisasi orqali kompaniya muayyan darajada "yo'qotish"ga uchrashini ko'rsatadi. Ritter 1998 hamda Ritter va Welch 2002-yilda IPO narxlash, taqsimlash va uzoq muddatli natijalarini tahlil qilib, IPO samaradorligini baholashda qisqa va uzoq muddatli ko'rsatkichlarni ajratib ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Rock 1986-yilda ilgari surgan axborot assimetriyasi modeli IPO underpricing fenomenini tushuntirib, informatsion ustunlikka ega investorlar mavjudligi sababli yangi aksiyalar pastroq narxda taklif qilinishini asoslaydi. Bu holat IPO samaradorligini baholashda muhim metodologik muammo bo'lib, jalb qilingan kapitalning haqiqiy qiymatini aniqlashni murakkablashtiradi.

Roosenboom 2012-yilda IPOlarni baholash va narxlash usullarini tahlil qilib, diskontlash, taqqoslash va bozor multiplikatorlari asosidagi yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu metodlar IPO samaradorligini baholashda kompaniya qiymatini aniqlash va bozor narxi bilan solishtirish imkonini beradi.

Kaplan va Norton 1992-yilda ishlab chiqqan Balanced Scorecard konsepsiyasi IPO samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nomoliyaviy indikatorlarni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv IPOdan keyingi faoliyatni kompleks baholashda qo'llanilib, kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Roy 1991-yilda ishlab chiqqan ELECTRE usuli ko'p mezonli qaror qabul qilish metodologiyasi sifatida IPO samaradorligini baholashda turli ko'rsatkichlarni integratsiya qilish imkonini beradi. Bu yondashuv moliyaviy natijalar, risklar, likvidlik va boshqaruv samaradorligini birgalikda baholashga xizmat qiladi.



Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar IPO orqali kapital jalb qilish samaradorligini baholash metodologiyasi ko'p qirrali va integratsiyalashgan yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. U samarali bozorlar nazariyasi, agentlik yondashuvi, axborot assimetriyasi, narxlash modellari hamda ko'p mezonli baholash usullarini o'z ichiga olgan holda kompleks tahlilni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot empirik-statistik hisob-kitoblarga tayanmaydi. Natija sifatida taklif etilayotgan metodologiya nazariy asoslash, metodologik konstruksiya va qiyosiy tahlil orqali ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv IPO fenomenining "ko'p qatlamli tabiatini", ya'ni moliyaviy, bozor va institutsional xususiyatlarini konseptual darajada aks ettirishga xizmat qiladi. [13]

Nazariy tahlil usuli IPOning iqtisodiy mohiyatini tushuntiruvchi korporativ moliya konsepsiyalariga tayanadi. Axborot asimetriyasi va signallash mexanizmlari IPO narxlash hamda past narxlash hodisasini izohlashga xizmat qiladi. Agentlik muammolari esa ommaviy kompaniyada mulkchilik va nazorat ajralishi natijasida yuzaga keladigan intizom va monitoring ehtiyojlarini tushuntirishda bazaviy asos bo'lib xizmat qiladi. [14] Bozor samaradorligi g'oyasi investorlarning axborotni narxlarga singdirish jarayonini baholashda metodologik "fon" sifatida qo'llanadi. [4]

Tizimli yondashuv baholash mezonlarini "yagona tizim" sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda IPO samaradorligi kirish resurslari, ya'ni jalb qilingan kapital va IPO xarajatlari, transformatsiya mexanizmlari, ya'ni narxni aniqlash, taqsimlash, axborotni oshkor qilish rejimi va korporativ boshqaruv, hamda chiqish natijalari, ya'ni strategik o'sish imkoniyati, bozor qiymati va institutsional ishonch o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar orqali talqin qilinadi. [1]

Qiyosiy tahlil AQSh va Yevropa Ittifoqi amaliyotiga xos tartibga solish hamda axborotni oshkor qilish arxitekturasini metodologik kontekst sifatida solishtiradi. AQShda ro'yxatdan o'tish va axborot oshkor qilishning markaziy instituti registratsiya bayonoti, ya'ni Form S-1 va unga bog'liq axborotni oshkor qilish talablari hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida esa Prospectus Regulation va u bilan uyg'unlashgan nazorat-amaliy ko'rsatmalar baholash tizimiga institutsional mezonlarni kiritish zaruratini kuchaytiradi. [17]

Konseptual model ishlab chiqish usuli ko'p mezonli baholash metodologiyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Unda og'irliklarni ekspert baholash orqali belgilash, mezonlararo muvozanatni saqlash va yakuniy integratsiyalashgan xulosani olish uchun AHP hamda outranking/kompromiss yondashuvlari nazariy tayanch sifatida olinadi. [18] Shuningdek, strategik boshqaruvda qo'llaniladigan balanslashgan ko'rsatkichlar g'oyasi, ya'ni ko'p perspektivali baholash modeli, faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanishning chekliligini asoslashga yordam beruvchi metodologik analog sifatida ishlatiladi. [7]

Ilmiy adabiyotlar va xalqaro metodologiyalar asosida umumlashtirish yondashuvi IPO bo'yicha nazariy va amaliy adabiyotlarda qayd etilgan "baholash obyektlari"ni (narxlash, xarajatlar, bozor reaksiyasi, uzoq muddatli natijalar, korporativ boshqaruv) yagona baholash konstruksiyasiga jamlaydi. [13]

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda IPO orqali kapital jalb qilish samaradorligini baholash bo'yicha integratsiyalashgan metodologiya ishlab chiqiladi. Metodologiya "statistik natijalar"ga emas, balki baholashning nazariy-mantiqiy arxitekturasini, mezonlar tizimi va ko'p mezonli modelning konseptual mexanizmlariga tayangan holda taqdim etiladi. [21]

Ushbu maqolada IPO samaradorligi "IPO natijasida jalb qilingan kapitalning kompaniya qiymatini yaratish qobiliyatiga xizmat qilishi hamda bu jarayonning bozor va institutsional mexanizmlar orqali barqarorlik va ishonchlilikka erishishi" sifatida talqin qilinadi. Bu ta'rif uch o'lchamdan iborat:

1. Moliyaviy samaradorlik — IPO orqali jalb qilingan resursning narxi va tarkibi (kapitalning real "sof tushumi"), kapitaldan foydalanish intizomi (kapitalni taqsimlash samaradorligi), hamda kapital strukturasi va strategik investitsiyalar bilan uyg'unlik. Bu o'lcham IPOning bevosita iqtisodiy funksiyasi — moliyalashtirish va resurslarni qiymat yaratuvchi yo'nalishlarga yo'naltirish — bilan bog'liq. [11]

2. Bozor samaradorligi — narxni aniqlash va investorlar signallarining adekvat aks etishi, bozor ishonchi va talabining shakllanishi, IPOning "reputatsion kapital" hosil qilishi hamda ommaviy bozor intizomi orqali menejment qarorlarining baholanishi. Bu o'lcham, ayniqsa, axborot asimetriyasi sharoitida past narxlash va taqsimlash mexanizmlarining (buyurtmalar kitobini shakllantirish) iqtisodiy mantiqi bilan uzviy. [14]

3. Institutsional samaradorlik — IPOdan keyin korporativ boshqaruv, oshkoralik, audit va moliyaviy hisobot standartlari, investor huquqlarini himoya qilish, daxldor shaxslar bilan bitimlar, ichki nazorat va risk boshqaruvi kabi institutlarning kuchayishi. Bu o'lcham kompaniyani "ommaviy kompaniya" sifatida legitimlashtiradigan va investor ishonchini barqarorlashtiradigan asosiy mexanizmlarni qamrab oladi. [8]

Quyidagi 1-jadvalda KISBM doirasida qo'llaniladigan asosiy mezonlar tizimi umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. IPO samaradorligini baholashning moliyaviy, bozor va institutsional mezonlari¹

O'lcham	Mezon guruhi	Asosiy mazmun	Dalil manbasi	Baholash mantiqi
Moliyaviy	Sof tushum va kapital hajmining mosligi	Jalb qilingan kapital miqdori, dilutsiya va emissiya xarajatlarning strategik ehtiyoj bilan uyg'unligi.	Prospekt, use of proceeds, emissiya xarajatlari materiallari	Resursning yetarliligi va qiymat yaratishga yo'naltirilishi aniqlanadi.
Moliyaviy	Kapitaldan foydalanish intizomi	IPO tushumining investitsiya portfeli va kapital budjetlash qarorlari bilan bog'langanligi.	Investitsiya rejasi, ichki siyosatlar, boshqaruv qarorlari	Tushumning samarali taqsimlanishi va uzoq muddatli qiymatga ta'siri baholanadi.
Bozor	Narxni aniqlash sifati	Taklif narxining adolatli qiymat diapazoniga yaqinligi va axborot asimmetriyasining boshqarilishi.	Valuatsiya materiallari, buyurtmalar kitobini shakllantirish dalillari	Bozor signallarining sifatli aks etishi va past narxlash talqini aniqlanadi.
Bozor	Investor talabi va tarkibi	Talabning barqarorligi, institutsional va retail investorlar muvozanati, investorlar bilan aloqalar sifati.	Subscription book, IR materiallari, marketing hujjatlari	Bozor ishonchi va reputatsion kapitalning shakllanishi tahlil qilinadi.
Institutsional	Korporativ boshqaruv sifati	Kengash, qo'mitalar, ichki nazorat va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarining yetukligi.	Korporativ boshqaruv kodeksi, reglamentlar, ichki siyosatlar	Agentlik xarajatlarini kamaytiruvchi institutlarning ishlashi aniqlanadi.
Institutsional	Oshkoralik va muvofiqlik	Prospektning to'liqligi, risk omillarining bayoni, hisobot va audit talablari bajarilishi.	Prospekt, audit xulosalari, disclosure siyosati	Investor himoyasi, ishonch va muvofiqlik darajasi baholanadi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, KISBM IPO samaradorligini faqat jalb qilingan kapital miqdori bilan emas, balki ushbu kapitalning narxi, bozor tomonidan qabul qilinishi va institutsional sifati orqali kompleks ravishda o'lchaydi. Shu sababli metodologiya moliyaviy natijalarni bozor ishonchi va korporativ boshqaruv mezonlari bilan bog'lab, bir yoqlama talqin xavfini kamaytiradi.

Taklif etilayotgan metodologiyada baholash mezonlari tizimi moliyaviy, bozor va institutsional arxitektura asosida uch blokli tarzda quriladi. Har bir blokda mezonlar "kiritma-jarayon-natija" mantiqiy zanjiri bo'yicha joylashtiriladi. Bu esa IPO samaradorligini faqat natija bilan emas, balki natijaga olib keluvchi mexanizmlar bilan birga baholash imkonini beradi [13].

Moliyaviy blokning markaziy g'oyasi shundan iboratki, IPOning moliyaviy samaradorligi faqat jalb qilingan summa kattaligi bilan emas, balki sof tushumning strategik kapital ehtiyoji bilan mosligi va ushbu resursning qiymat yaratishga yo'naltirilish sifati bilan belgilanadi. IPO xarajatlari nafaqat to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar, balki bilvosita xarajatlar, jumladan, narxlash diskonti va past narxlash orqali ham yuzaga keladi [11].

Moliyaviy mezonlar quyidagi ikkita "tayanch" kategoriyada tizimlashtiriladi:

Jalb qilingan kapital hajmining optimal darajasi bu yerda "strategik moliyalashtirish bo'shlig'i"ni to'ldirish, ortiqcha dilutsiya va ortiqcha kapitalning agentlik muammolarini kuchaytirish xavfini minimallashtirish, shuningdek IPO dizaynida primary va secondary taklif nisbatlari hamda erkin muomaladagi ulush konfiguratsiyasi orqali manfaatlar muvozanatini saqlash bilan aniqlanadi [6].

Kapitaldan foydalanish samaradorligi IPO tushumining kapital budjetlash va investitsiya intizomi asosida "NPV-mantiq" bo'yicha taqsimlanishi, resurslarning qiymat yaratmaydigan yo'nalishlarga oqib ketmasligi hamda moliyaviy bozorlar intizomining kapital taqsimoti sifatini oshirishi bilan izohlanadi. Shu asosda konseptual indikatorlar ishlab chiqiladi [20].

Bozor blokining asosiy g'oyasi shundan iboratki, IPO narxni aniqlash jarayonidir. Unda anderrayter va investorlar o'rtasidagi axborot almashinuvi natijasida taklif narxi va taqsimot, ya'ni alokatsiya shakllanadi. Bozor samaradorligi shu jarayonning "axborot ishlab chiqarish" qobiliyati, ishonchni institutsionalizatsiya qilishi va kompaniyaning bozor qiymatini adolatli shakllantirishga xizmat qilishi bilan baholanadi [1].

Bozor mezonlari ikki tayanch kategoriyada jamlanadi:

Kompaniyaning bozor qiymati shakllanishi taklif narxining "adolatli qiymat" haqidagi baholashlar diapazoni bilan mosligi, prospekt va ro'yxatdan o'tish hujjatlarida berilgan axborotning yetarliligi, shuningdek narxlashda

1 Muallif ishlanmasi



signallash hamda axborot asimmetriyasi omillarining boshqarilganligi bilan konseptual jihatdan baholanadi [15].

Investorlar talabining shakllanishi miqdoriy oversubscription bilan emas, balki talab tarkibi, ya'ni institutsional va retail investorlar muvozanati, uzoq muddatli investorlar ulushi hamda investorlar bilan aloqalar va oshkoralik sifati orqali yuzaga kelgan ishonchning barqarorligi sifatida baholanadi [1].

Institutsional blokning tayanch g'oyasi shundan iboratki, IPO orqali kompaniya "sabzavot bozoridagi kelishuv" emas, balki qattiq qoidalar va standartlar, ya'ni oshkor qilish, audit va korporativ boshqaruv talablari ostida investorlar bilan uzoq muddatli shartnoma munosabatiga kiradi. Bu munosabat sifatining oshishi kapital qiymati va bozor ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [8].

Institutsional mezonlar quyidagi kategoriyalar orqali tizimlashtiriladi:

Korporativ boshqaruv sifatining oshishi kuzatuv kengashi, mustaqil direktorlar, audit va risk qo'mitalari, daxldor shaxslar bilan bitimlar ustidan nazorat, manfaatlar to'qnashuvi va agentlik xarajatlarini qisqartiruvchi mexanizmlar hamda strategik boshqaruvning formalizatsiyasi, ya'ni strategiya va KPI tizimi orqali konseptual indikatorlarga aylantiriladi [8].

Oshkoralik darajasi prospekt va ro'yxatdan o'tish hujjatlarining to'liqligi, muhim axborotni oshkor qilish tamoyillari, moliyaviy hisobotlarning taqdimoti va minimal tarkib talablari, shuningdek regulator hamda bozor amaliyotlarida axborot asimmetriyasini kamaytirish vazifasi bilan bog'lanadi [5].

Statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan ham baholash indikatorlarini konseptual darajadagi "ta'sir yo'nalishlari" sifatida qurish mumkin. Taklif etilayotgan metodologiyada indikatorlar uch guruhga ajratiladi:


Birinci guruh — IPO oldi va keyingi holatni solishtirish. Bu yerda "oldi–keyin" solishtirish nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarishi (bu empirik/raqamli hisob-kitob talab qilishi mumkin), balki boshqaruv arxitekturasini, axborot siyosati, investorlar bilan munosabatlar, kapital budjetlash tartiblarining formalizatsiyasi kabi institutsional atributlarning transformatsiyasini dalillar asosida (hujjatlar, siyosatlar, organlar tuzilmasi) baholashga yo'naltiriladi [8].

Ikkinchi guruh kompaniyaning rivojlanish strategiyasiga ta'siri bilan bog'liq. IPO samaradorligi jalb qilingan kapitalning strategik "o'sish platformasi"ni qo'llab-quvvatlash darajasi bilan baholanadi. Bunda asosiy indikatorlar sifatida investitsiya portfeli mantiqi, kapital budjetlash intizomi, strategik maqsadlar bilan moslik, shuningdek keyingi moliyalashtirish imkoniyatlarining, ya'ni follow-on offering va debt capacityning institutsional sharoitlari ko'riladi [10].

Uchinchi guruh investorlar uchun jozibadorlik darajasi bilan bog'liq. Jozibadorlik "narx dinamikasi" bilan emas, balki oshkor qilish va risk omillarining ochiqqligi, korporativ boshqaruv kafolatlari, bozor bilan kommunikatsiya sifati hamda investitsion narrativning izchilligi va tekshiriluvchanligi orqali konseptual darajada baholanadi [5].

Taklif etilayotgan model integratsiyalashgan ko'p mezonli konseptual konstruktsiya sifatida Kompleks IPO Samaradorligi Baholash Modeli, ya'ni KISBM nomi bilan shakllantiriladi. U uch darajali konstruktsiyaga ega. Mazkur konstruktsiya (1) o'lchamlar, (2) mezonlar va (3) indikatorlar hamda dalillardan iborat. Modelning metodologik yadrosi ko'p mezonli baholash bo'lib, uning vazifasi turli tabiatdagi, qisman miqdoriy va qisman sifat ko'rsatkichlarini yagona integratsiyalashgan xulosa mexanizmiga keltirishdir [19].

Quyidagi 1-rasmda KISBMning uch o'lchamli konseptual tuzilmasi sxematik tarzda ko'rsatilgan.



1-rasm. KISBMning uch o'lchamli konseptual modeli²

1-rasmda ko'rsatilganidek, modelning markazida KISBM joylashadi va u moliyaviy, bozor hamda institutsional bloklardan kelayotgan mezonlar, indikatorlar va dalillarni yagona baholash mantig'iga birlashtiradi. Bu tuzilma IPOni bir vaqtning o'zida kapital jalb qilish jarayoni, bozor signali va institutsional transformatsiya mexanizmi sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Model quyidagi tamoyillarga tayangan holda ishlaydi:

Birinchi tamoyil "sof tushum" va "sof ta'sir"ni ajratishga asoslanadi. IPO orqali jalb qilingan kapital hajmi, ya'ni yalpi tushum, metodologik jihatdan "kirish resursi" sifatida talqin qilinadi. Sof tushum esa "foydalanish mumkin bo'lgan resurs" sifatida qaraladi. IPO xarajatlari, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar, bu farqni izohlovchi asosiy kategoriya bo'lib, past narxlash ham "bilvosita qiymat yo'qotilishi" kanalida ko'riladi [11].

Ikkinchi tamoyil kompensatsiyalanish chegarasiga, ya'ni non-compensatory logic ga asoslanadi. Boshqaruv sifati va oshkoralik bo'yicha minimal standartlar bajarilmasa, yuqori moliyaviy natijalar ham "umumiy samaradorlik"ni to'liq kompensatsiya qila olmaydi. Bu yondashuv jamoaviy ishonch va investor himoyasi institutlari kapital bozorining fundamental tayanch sharti ekanini ta'kidlovchi xalqaro standartlar mantig'iga mos keladi [8].

Uchinchi tamoyil dalilga asoslangan baholashga tayanadi. Statistik ma'lumotlardan voz kechilgan sharoitda indikatorlar prospekt va ro'yxatdan o'tish hujjatlari, korporativ boshqaruv kodeksi va ichki siyosatlar, audit xulosalari, investorlar bilan kommunikatsiya materiallari hamda risk omillari bayoni kabi dalillar to'plami asosida baholanadi. Prospekt talablari va oshkor qilish standartlari bu yerda dalil manbaining sifat mezoniga aylanadi [17].

To'rtinchi tamoyil og'irliklarni asoslash va izchillik bilan bog'liq. Mezonlar og'irliklari ekspert juft-taqqoslash usuli orqali aniqlanishi mumkin. Bunday yondashuv nomoddiy kategoriyalarni, masalan, oshkoralik sifatini ham formal og'irlik tizimiga kiritishga imkon beradi [19].

Shu tamoyillardan kelib chiqib, KISBMning amaliy algoritmi quyidagicha taklif etiladi (konseptual darajada):

Birinchi bosqich baholash chegarasi va ufqini belgilashdan iborat. IPOning baholash ufqi "bitim sifati", ya'ni deal quality, va "bitimdan keyingi transformatsiya", ya'ni post-IPO transformation sifatida ikki modulga ajratiladi. Bu ajratish IPOni faqat "bir kunlik hodisa" emas, balki institutsional o'zgarishlar jarayoni sifatida ko'rishga xizmat qiladi [13].

Ikkinchi bosqich indikatorlarni dalillar bilan bog'lashdan iborat. Har bir mezon bo'yicha "minimal dalil paketi" aniqlanadi. Masalan, oshkoralik bo'yicha prospekt tarkibi va moliyaviy hisobot taqdimoti talablari, korporativ boshqaruv bo'yicha kengash va qo'mitalar reglamenti, bozor bo'yicha esa narxlash jarayonining asoslanishi hamda investorlar bilan o'zaro aloqa protokollari nazarda tutiladi [17].

Uchinchi bosqich baholash shkalasini tanlashdan iborat. Indikatorlar "lingvistik", ya'ni past, o'rta va yuqori, yoki "ballik" shkalaga, masalan, minimal, qoniqarli va ilg'or amaliyot ko'rinishiga o'tkaziladi. Bu statistik hisob-kitoblarni talab qilmaydi, ammo baholashni standartlashtirish imkonini yaratadi [19].

To'rtinchi bosqich — ko'p mezonli agregatsiya:

- kompensatsiyalanuvchi holatlar uchun vaznli yig'indi modeli;
- "minimal standartlar" muhim bo'lgan holatlar uchun outranking/kompromiss yondashuvlari (ELECTRE/VIKOR singari konsepsiyalar) qo'llanishi mumkin [16].

Model tanlovi baholash maqsadiga bog'liq. Investor uchun saralash vazifasida reytinglash ustun bo'lishi mumkin. Regulator yoki kompaniya uchun esa "komplayens va transformatsiya xaritasi" (tafovutlar tahlili) maqsadga muvofiqroq bo'ladi [5].

Beshinchi bosqich sensitivlik va izchillik tekshiruvidan iborat. Unda og'irliklar o'zgarishi yakuniy xulosaga qanchalik ta'sir qilishi konseptual jihatdan tekshiriladi. Baholashning subyektivligini kamaytirish uchun "ekspert izchilligi" (consistency) talablariga amal qilish tavsiya etiladi [19].

Natija sifatida KISBM metodologiyasi IPO samaradorligini "uch o'lchamli, dalilga asoslangan, ko'p mezonli" tizimga keltiradi. U statistik ma'lumotlarsiz ham baholashni strukturaviy, auditlanadigan va qiyoslanadigan shaklga yaqinlashtiradi [21].

Xalqaro metodologiyalar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, AQSh amaliyotida IPOning institutsional tayanch nuqtasi ro'yxatdan o'tish va keng qamrovli axborotni oshkor qilish talablaridir. Form S-1 bazaviy ro'yxatdan o'tish shakli sifatida qo'llanadi, non-moliyaviy oshkor qilish talablari Regulation S-K, moliyaviy hisobot qismi esa Regulation S-X doirasida shakllantiriladi. Shuningdek, "chalgitmaslik" tamoyiliga ko'ra zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etish majburiyati ham e'tirof etiladi [17]. Shu arxitektura IPO samaradorligini baholash metodologiyasida institutsional indikatorlarni hujjat sifati va oshkor qilishning yetarililigi bilan bog'lashga imkon beradi [5].

Yevropa Ittifoqida Prospectus Regulation (EU) 2017/1129 prospektni e'lon qilish rejimini belgilaydi va investorlarni himoya qilish uchun axborot asimmetriyasini kamaytirish zaruratini ta'kidlaydi. ESMA tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatmalar prospektning to'liqligi, tushunarililigi va izchilligini baholashda yagona amaliy standartlarni shakllantirishga qaratilgan [2]. Demak, Yevropa modelida prospekt sifati va nazorat amaliyoti IPO



samaradorligini baholashning institutsional blokida asosiy dalil manbai sifatida yanada markaziy o'rin egallaydi [3].

Quyidagi 2-jadvalda IPOni baholashda muhim bo'lgan institutsional rejimlar qiyosiy ko'rinishda jamlangan (2-jadval).

2-jadval. AQSh, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston sharoitida IPO baholashning institutsional tayanchlari³

Yurisdiksiya	Asosiy hujjat yoki rejim	Oshkor qilish markazi	Investor himoyasi elementi	Metodologik ahamiyati
AQSh	Form S-1, Regulation S-K, Regulation S-X	Ro'yxatdan o'tish bayonoti va keng qamrovli oshkor qilish	Muhim axborotni to'liq bayon etish va javobgarlik rejimi	Hujjat sifati, oshkor qilish yetarliligi va bitim sifati mezonlarini kuchaytiradi.
Yevropa Ittifoqi	Regulation (EU) 2017/1129 va ESMA guidance	Prospektning to'liqligi, tushunariligi va izchilligi	Prospekt sifati orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish	Institutsional blokda prospekt sifati va nazorat amaliyotini markazga olib chiqadi.
O'zbekiston	PF-4720 va korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish tashabbuslari	Korporativ boshqaruv va oshkoralikni kuchaytirishga qaratilgan mahalliy muhit	Investor jozibadorligi va ochiqlikni oshirishga qaratilgan normativ tayanch	KISBMning institutsional mezonlarini milliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

2-jadval qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, IPO samaradorligini baholashda prospekt va oshkor qilish rejimlari faqat formal hujjatlar emas, balki investor ishonchi va bozor intizomining amaliy tayanchi sifatida ishlaydi. O'zbekiston uchun asosiy xulosa shundaki, metodologiyaning institutsional bloki milliy korporativ boshqaruv modernizatsiyasi bilan uyg'unlashtirilgandagina to'liq ishlaydi.

IPO samaradorligini baholash adabiyotida ikkita katta metodologik yo'nalish ustun hisoblanadi. Bular bozor asosli baholash, ya'ni tadbir-tahlil va turli rentabellik konstruksiyalari, hamda operatsion-hisobdorlik asosli baholash, ya'ni IPOdan keyingi moliyaviy-operatsion dinamikani taqqoslashdan iborat [12]. Keng qamrovli sharhlar IPO hodisalari, xususan past narxlash, taqsimot va uzoq muddatli natijalarning vaqt bo'yicha stasionar emasligini hamda institutlar rolini alohida ta'kidlaydi. Bu esa faqat bitta metrika bilan baholashning ilmiy chekliligini kuchaytiradi [13].

Mavjud yondashuvlarning birinchi cheklovi shundan iboratki, faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanish metodologik torlikni keltirib chiqaradi. IPO xarajatlari va natijalari ko'p kanalli bo'ladi. Narxlash va taqsimlash mexanizmi, ya'ni buyurtmalar kitobini shakllantirish jarayoni axborot ishlab chiqarish vazifasini bajaradi. Past narxlash esa ba'zan investorlarni jalb qilish va axborotni "sotib olish" mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Demak, uni faqat "yo'qotish" sifatida baholash ham bir yoqlama bo'lishi mumkin [1].

Ikkinchi cheklov bozor ko'rsatkichlarining ko'pincha konyunktura va vaqtga sezgir ekanidadir. IPO hodisalari vaqt bo'yicha "rejimlar", ya'ni hot va cold markets, hamda institutlar kesimida o'zgarib turishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuning uchun bozor reaksiyasini yagona absolyut mezonga aylantirish baholashni beqaror qiladi [13].

Uchinchi cheklov shundan iboratki, institutsional natijalar ko'pincha baholashdan chetda qoladi. Holbuki, korporativ boshqaruv va oshkoralik bo'yicha xalqaro standartlar kapital bozorida ishonch va samaradorlikning fundamental shartlari sifatida e'tirof etiladi [8]. Shu nuqtada baholashning integratsiyalashgan modeli zaruratga aylanadi. U investor, kompaniya va regulator nuqtayi nazarlarini bitta tizimga jamlay olishi kerak [7].

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda integratsiyalashgan metodologiyani institutsionalizatsiya qilish bo'yicha quyidagi metodik takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, IPO samaradorligini baholash integratsiyalashgan uch o'lchamli tizim, ya'ni moliyaviy, bozor va institutsional bloklar birligi sifatida standartlashtirilishi lozim. Bu yondashuv xalqaro korporativ boshqaruv standartlari va oshkor qilish prinsiplarining asosiy shart sifatidagi roliga mos keladi [8].


Ikkinchidan, baholash tizimi ko'p mezonli baholash metodlariga tayangan holda formalizatsiya qilinishi kerak. Og'irliklarni ekspert usullari orqali asoslash, ya'ni AHP dan foydalanish, va minimal standartlar buzilganda kompensatsiyani cheklaydigan outranking hamda kompromiss mexanizmlarini qo'llash baholashning metodologik mustahkamligini oshiradi [19].

Uchinchidan, IPOdan keyin monitoring mexanizmi joriy etilishi zarur. Bunda prospektida ko'rsatilgan tushumdan foydalanish mantig'i, oshkoralik rejimi, korporativ boshqaruv transformatsiyasi va investorlar bilan

kommunikatsiya jarayonlari ma'lum davriylikda, ya'ni modul baholash asosida tekshirilib boriladigan dalilga asoslangan monitoring kartasi ishlab chiqiladi. IOSCO va regulator yondashuvlarida oshkor qilish hamda investorni himoya qilishning markaziylik bu taklifni metodologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi [5].

To'rtinchidan, milliy institutsional muhitda, xususan O'zbekiston sharoitida IPO metodologiyasini qo'llashda korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish va oshkoralikni oshirishga qaratilgan normativ hujjatlar bilan uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish tashabbuslari va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilik baholash mezonlarining institutsional blokini lokalizatsiya qilishga asos bo'la oladi [9].

Quyidagi 2-rasmda KISBMning amaliy qo'llanish bosqichlari va monitoring oqimi tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. KISBMning amaliy baholash algoritmi va monitoring oqimi⁴

2-rasm KISBMni statik tavsif emas, balki ketma-ket ishlovchi metodologik jarayon sifatida ochib beradi. Baholash ufqini aniqlashdan boshlab dalil paketlari, baholash shkalasi, agregatsiya, sensitivlik tekshiruvi va keyingi monitoringgacha bo'lgan oqim metodologiyani auditlanadigan va qayta qo'llanadigan tizimga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada IPO orqali kapital jalb qilish samaradorligini baholash masalasi ko'p mezonli va ko'p qatlamli ilmiy muammo sifatida asoslandi. IPOning iqtisodiy mohiyati moliyaviy resurs jalb qilish bilan birga bozor narxini aniqlash va institutsional legitimlik mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi [13].

Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida statistik ma'lumotlarsiz qo'llash mumkin bo'lgan integratsiyalashgan metodologiya — KISBM, ya'ni Kompleks IPO Samaradorligi Baholash Modeli ishlab chiqildi. Model uch o'lcham, mezonlar tizimi va dalilga asoslangan indikatorlar orqali IPO samaradorligini izchil baholashni taklif qiladi. Ko'p mezonli agregatsiya, ya'ni AHP hamda outranking/kompromiss yondashuvlari, turli tabiatdagi indikatorlarni yagona metodologik xulosaga keltirish imkonini beradi [19].

Ishlab chiqilgan metodologiya amaliy jihatdan kompaniyalar uchun IPOga tayyorgarlik va post-IPO transformatsiyani boshqarish, investorlar uchun sinchkov tahlil va qiyosiy baholash, regulatorlar uchun esa oshkor qilish va investor himoyasi sifatini baholashning strukturaviy asosini shakllantirishi mumkin [5].

Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari sifatida statistik tahlilga o'tmasdan turib ham bir necha masala dolzarb hisoblanadi. Jumladan, (i) turli tarmoqlar uchun indikatorlar "dalil paketlari"ni standartlashtirish, (ii) institutsional blokni ESG va barqarorlikni oshkor qilish ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish hamda (iii) baholash natijalarini korporativ strategik boshqaruv kartalari (ko'p perspektivali boshqaruv kartalari) bilan integratsiya qilish zarur [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Benveniste, L. M., & Spindt, P. A. (1989). How investment bankers determine the offer price and allocation of new issues. *Journal of Financial Economics*, 24(2), 343-361. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(89\)90051-2](https://doi.org/10.1016/0304-405X(89)90051-2)
2. European Parliament, & Council of the European Union. (2017). Regulation (EU) 2017/1129 of the European Parliament and of the Council of 14 June 2017 on the prospectus to be published when securities are offered to the public or admitted to trading on a regulated market. EUR-Lex. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2017/1129/oj/eng>
3. European Securities and Markets Authority. (n.d.). Prospectus. <https://www.esma.europa.eu/issuer-disclosure/prospectus>
4. Fama, E. F. (1970). Efficient capital markets: A review of theory and empirical work. *The Journal of Finance*, 25(2), 383-417. <https://doi.org/10.2307/2325486>
5. International Organization of Securities Commissions. (2010). Principles for periodic disclosure by listed entities: Final report. <https://www.iosco.org/library/pubdocs/pdf/IOSCOPD317.pdf>



6. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305-360. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
7. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1992). The balanced scorecard: Measures that drive performance. *Harvard Business Review*, 70(1), 71-79. <https://hbr.org/1992/01/the-balanced-scorecard-measures-that-drive-performance-2>
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). G20/OECD principles of corporate governance 2023. <https://doi.org/10.1787/ed750b30-en>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-2635197>
10. Pagano, M., Panetta, F., & Zingales, L. (1998). Why do companies go public? An empirical analysis. *The Journal of Finance*, 53(1), 27-64. <https://doi.org/10.1111/0022-1082.25448>
11. Ritter, J. R. (1987). The costs of going public. *Journal of Financial Economics*, 19(2), 269-281. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(87\)90005-5](https://doi.org/10.1016/0304-405X(87)90005-5)
12. Ritter, J. R. (1998). Initial public offerings. *Contemporary Finance Digest*, 2(1), 5-30. <https://site.warrington.ufl.edu/ritter/files/CFD.pdf>
13. Ritter, J. R., & Welch, I. (2002). A review of IPO activity, pricing, and allocations. *The Journal of Finance*, 57(4), 1795-1828. <https://doi.org/10.1111/1540-6261.00478>
14. Rock, K. (1986). Why new issues are underpriced. *Journal of Financial Economics*, 15(1-2), 187-212. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(86\)90054-1](https://doi.org/10.1016/0304-405X(86)90054-1)
15. Roosenboom, P. (2012). Valuing and pricing IPOs. *Journal of Banking & Finance*, 36(6), 1653-1664. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2012.01.009>
16. Roy, B. (1991). The outranking approach and the foundations of ELECTRE methods. *Theory and Decision*, 31(1), 49-73. <https://doi.org/10.1007/BF00134132>
17. U.S. Securities and Exchange Commission. (n.d.). What is a registration statement? <https://www.sec.gov/resources-small-businesses/going-public/what-registration-statement>
18. Saaty, T. L. (1980). *The analytic hierarchy process*. McGraw-Hill.
19. Saaty, T. L. (2008). Decision making with the analytic hierarchy process. *International Journal of Services Sciences*, 1(1), 83-98. <https://doi.org/10.1504/IJSSCI.2008.017590>
20. Wurgler, J. (2000). Financial markets and the allocation of capital. *Journal of Financial Economics*, 58(1-2), 187-214. [https://doi.org/10.1016/S0304-405X\(00\)00070-2](https://doi.org/10.1016/S0304-405X(00)00070-2)
21. Yalçın, N., & Ünlü, U. (2018). A multi-criteria performance analysis of initial public offering (IPO) firms using CRITIC and VIKOR methods. *Technological and Economic Development of Economy*, 24(2), 534-560. <https://doi.org/10.3846/20294913.2016.1213201>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100